TUPROQ SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AYRIM CHUVALCHANGLARNING O‘RNI

ERGASHEVA N.A.

Qo‘qon davlat pedagogika instituti biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Tuproq unumdorli, samaradorligi hozirgi davrda muhim ahamiyatli, bu esa tuproq haqidagi tushunchalarimizni yanada kengaytirishimizga asos bo’ladi. Tuproq unumdorligiga bir nechta sabablarni ko’rsatish mumkin , lekin quyida umurtqasiz hayvonlar asosiy etiborga olingan. Shulardan yomg’ir chuvalchanglari tuzilishi , hayoti haqida so’z yuritilgan. Tuproqqa tasiri bayon qilingan.

Tayanch so’zlar: Tuproq unumdorligi, tirik organizmlar bog’liqligi, mikroorganizm, o’simlik, hayvon, umurtqasizlar.

Аннотация: Почва плодородна, эффективность важна в настоящее время, что дает нам основу для дальнейшего расширения нашего понимания почвы. Можно указать на несколько причин плодородия почвы, но ниже основное внимание уделяется беспозвоночным. Из них упоминаются строение , жизнь дождевых червей. Описано влияние на почву.

Ключевые слова: Плодородие почвы, родство живых организмов, микроорганизмов, растений, животных, беспозвоночных.

Tuproq unumdorligi o‘simliklar olamini rivojlanishida juda muhim ro‘l o‘ynaydi. O‘simliklarning yaxshi rivojlanishi esa boshqa tirik organizmlarning yashashi uchun zamin tayyorlaydi. Atrof muhitni kislorod va ozuqa moddalar bilan boyitadi. Natijada tirik organizmlar o‘rtasidagi o‘zaro uzviylik qonuniyatlari taminlanadi. Tuproq unumdorligini oshishi bir necha omillarga bog‘liq. Shulardan eng asosiylari tuproq tarkibida yashovchi organizmlar orqali amalga oshiriladi. Bu organizmlar hayot faoliyati natijasida tuproqni chirindi va turli kerakli moddalarga boyitadi. Bu organizmlar qatoriga tuproqda yashovchi mikroorganizmlar (bakteriya, zamburug‘lar, sodda tuzilishdagi hayvonlar), umurtqasiz hayvonlar, kemiruvchilar va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Shulardan turli xil tuproqda yashovchi chuvalchanglar haqida, ayniqsa yomg‘ir chuvalchanglari haqida yoritsak.

Yomg‘ir chuvalchanglari yoki yer chuvalchanglari (ayrim viloyatlarda loyxo‘rak deb ataladi) - kam tukli halqalilar sinfiga mansub bo‘lib, chuvalchanglar bir necha oilasining umumiy nomi hisoblanadi. Tanasining uzunligi bir necha sm dan tropik turlari 2,5 m gacha. O‘zbekistonda uchraydigan turlari 15—20 sm dan oshmaydi. Tanasidagi halqalar soni 80 dan 450 gacha. Har bir halqasida 4 juftdan yoki undan ko‘proq tuk bor. Tuklar yomg‘ir chuvalchanglarini o‘rmalaganida tayanch vazifasini bajarib harakarlanishiga yordam beradi. Maxsus sezgi organlari rivojlanmagan, biroq terisida juda ko‘p sezgir hujayralari bor. Terisi orqali nafas oladi. Ayniqsa nam terisi kislorodni yaxshi o‘tkazib beradi. Tuproq yuzasiga chiqib qolgan yomg‘ir chuvalchangi terisi qurib qolsa, uni nobud bo‘lishiga olib keladi. Chunki, quruq terisi kislorodni yomon o‘tkazadi. Natijada chuvalchanglar bo‘g‘ilib halok bo‘ladi. Shuning uchun ham maxsus suyuqliklar orqali terisini namlab turadi. Qon aylanish sistemasi tutash, yuragi bo‘lmaydi. Qoni qizil, uning tarkibida gemoglobin bor va havodagi kislorodni butun tanasiga tashishda yordam beradi. Nerv sistemasi bitta halqum usti nerv tugunidan va qorin nerv zanjirini hosil qiluvchi birmuncha mayda qorin nerv tugunlaridan iborat. Chiriyotgan organik

qoldiqlar bilan oziqlanadi. Tuproqda yashaydi, yomg‘irdan so‘ng tuproq yuzasiga chiqqanligi sababli “yomg‘ir chuvalchangi “ nomini olgan. Germofradit, tuxumini pillaga qo‘yadi. Germofradit degani u tanasida ham erkaklik, ham urg‘ochilik jinsini saqlaydi. Germofradit bo‘lsa ham, ikkita yomg‘ir chuvalchangi bir birini urug‘lantiradi. O‘zini o‘zi urug‘lantirishi hali kuzatilmagan. Urug‘langandan so‘ng hosil bo‘lgan tuxumlarini pilla ichiga qo‘yadi. Tuxumdan chiqqan chuvalchanglar bir necha yil yashaydi. Yomg‘ir chuvalchanglarida regeneratsiya hususiyati yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Ikkiga bo‘linib qolgan har bir chuvalchangdan yangi chuvalchang hosil bo‘lish hususiyatiga ega.

Yomg‘ir chuvalchangi in qazib tuproqni yumshatadi, uning chuqur qatlamlariga havo o‘tishi va suv shimilishiga imkon beradi, shuningdek, tuproq qatlamlarini aralashtiradi, o‘simlik qoldiqlari chirishini tezlashtiradi, tuproqni gumusga boyitib, unumdor qiladi. Yomg‘ir chuvalchanglari aralash o‘rmon, o‘rmoncho‘l va qora tuproqli nam iqlimli mintaqalarda ayniqsa ko‘p (1 m2 tuproqda 300 dan ortiq) bo‘ladi. Yomg‘ir chuvalchangi O‘rta Osiyo mintaqasida asosan ariqlar yaqinida, sug‘oriladigan nam tuproqli yerlarda uchraydi. Yomg‘ir chuvalchangining 1500 ga yaqin, jumladan O‘zbekistonda 20 dan ortiq turi ma’lum. Sug‘oriladigan yerlarda Nicodrilus caliginosus, Oxtolasium lacteum keng tarqalgan. Ayrim yomg‘ir chuvalchangi biologik gumus olish maqsadida ko‘paytiriladi. Misol uchun hozirda xalq orasida Koliforniya qizil chuvalchangini ko‘paytirib, tuproq unumdorligini oshirishda keng foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu tuproqni kimyoviy moddalar bilan kam ifloslanishiga va sifatli ozuqa maxsulotlarini yetishtirishga sabab bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prasolov L. I., Pochvi Turkestana, L., 1925;

2. Bahodirov M., Rasulov A., Tuproqshunoslik, T., 1975;

3. Genusov A. 3., Pochvi i zemelnie resursi Sredney Azii, T., 1983;

4. Pochvi Uzbekistana, T., 1984; Konobeyeva G. M., Pochvo‘ Uzbekistana, ix rayonirovaniye i kachestvennaya otsenka, T., 1985;

5. Azimboyev S, Tuproq va uning turlari, T., 1986.